



SYMMETRIC AND ASYMMETRIC FEATURES OF THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF SOCIETY

Ulugbek Bekpulatov

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences, Associate Professor

Doctoral Student, Navoi State University

bekpulatov.u@mail.ru

Navoi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: symmetry, asymmetry, dialectical unity of symmetry and asymmetry, spirituality, morality, values, stability, renewal, development.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article provides a socio-philosophical analysis of the symmetric and asymmetric aspects of the spiritual sphere of society. The study demonstrates that in spiritual development, symmetry is expressed as mutual respect between the individual and society, the harmony of personal and collective interests, the unity of values, the universality of moral norms, and spiritual tranquility. Asymmetry, on the other hand, is identified as a factor which, due to contradictions and disproportions in the process of spiritual development, leads to the emergence of new values and cultural forms. It is also substantiated that ensuring the unity of spiritual symmetry and asymmetry serves as the key mechanism for the development of society.

JAMIYAT MA'NAVIY TARAQQIYOTINING SIMMETRIK VA ASIMMETRIK XUSUSIYATLARI

Ulug'bek Bekpo'latov

Navoiy davlat universiteti doktoranti

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

bekpulatov.u@mail.ru

Navoiy, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: simmetriya, asimmetriya, simmetriya va asimmetriyaning dialektik birligi, ma'naviyat, axloq, qadriyat, barqarorlik, yangilanish, taraqqiyot.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning ma'naviy sohasidagi simmetrik va asimmetrik jihatlar ijtimoiy falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Natijada, ma'naviy taraqqiyotda simmetriya - inson va jamiyat o'rtasidagi

o'zaro hurmat, shaxsiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi, qadriyatlar birligi, axloqiy me'yorlarning keng qamrovliligi, ruhiy osoyishtalik sifatida, asimmetriya esa ma'naviy rivojlanish jarayonida qarama-qarshiliklar, nomutanosibliklar sababli yangidan-yangi qadriyatlar hamda madaniyat shakllarining paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omil ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, ma'naviy simmetriya va asimmetriyaning birligini ta'minlash jamiyatni rivojlantirishning asosiy mexanizmi ekanligi asoslangan.

СИММЕТРИЧНЫЕ И АСИММЕТРИЧНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Улугбек Бекпулатов

*Докторант Навоийского государственного университета,
доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент*

bekpolatov.u@mail.ru

Навои, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: симметрия, асимметрия, диалектическое единство симметрии и асимметрии, духовность, нравственность, ценности, стабильность, обновление, развитие.

Аннотация: В данной статье социально-философски проанализированы симметричные и асимметричные аспекты духовной сферы общества. В результате показано, что в духовном развитии симметрия проявляется как взаимное уважение между человеком и обществом, гармония личных и общественных интересов, единство ценностей, универсальность нравственных норм, духовное спокойствие. Асимметрия же выступает фактором, который в силу противоречий и диспропорций в процессе духовного развития приводит к появлению новых ценностей и форм культуры. Также обосновано, что обеспечение единства духовной симметрии и асимметрии является основным механизмом развития общества.

Kirish. Jahonda yuz berayotgan global beqarorlik jarayonlari mamlakatlarning ma'naviy sohalarida ham turli asimmetrik o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bunday murakkabliklar asimmetriyani simmetriya tomon yo'naltirish va uni ijobiy boshqarishning samarali mexanizmlarini, strategiyalarini ishlab chiqish orqali ularning dinamik birligiga erishish va yangi dunyoviy tartibotni o'rnatish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu sharoitda jamiyat ma'naviy

hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish masalasini simmetriya va asimmetriya birligi kontekstida ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jamiyat hayotining ma'naviy sohasida simmetriya va asimmetriyaning namoyon bo'lishiga oid bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Masalan, Y.M. Pimenov nomzodlik dissertatsiyasida madaniyat taraqqiyotidagi tarixiy parallelliklarni chuqur tadqiq etib, madaniy va ma'naviy o'zgarish jarayonlarida simmetriya tamoyilining tartibga solish funksiyasini konseptual jihatdan asoslab beradi hamda bu tamoyilning ta'lim o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdagi gnoseologik imkoniyatlarini ko'rsatib beradi [1].

O.V. Xoteeva uyg'unlikni madaniy va ma'naviy sivilizatsiyalarga asos bo'luvchi eng muhim g'oya va kategoriya sifatida tadqiq etib, ushbu g'oyaning rivojlanish evolyutsiyasini hamda uning simmetriya, dissimmetriya va antisimmetriya g'oyalari bilan dialektik alaqadorligini turli madaniyatlarning transformatsiyasi jarayonlari kontekstida konseptuallashtiradi [2].

V.Y.Dobroxotova matematikani madaniyat va ma'naviyatning tili sifatida tadqiq etib, simmetriya, asimmetriya va oltin nisbat kategoriyalarini she'riy matn garmoniyasining matematik asoslari sifatida chuqur o'rganadi va Pavel Florenskiy ijodida bu g'oyalarning tutgan o'rnini ko'rsatib beradi [3].

Q.Nazarov qadriyatlar tizimida barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasini tadqiq etib, qadriyatlarning jamiyat taraqqiyoti va inson ma'naviy kamolotidagi o'rni asoslab berilgan [4]. M.K. Normuratova O'zbekistonning demokratik taraqqiyoti sharoitida jamiyat ma'naviy ehtiyojlarining shakllanish tendensiyalari, ularning mohiyati, tarkibi va tizimi, shuningdek, real hayotda namoyon bo'lish xususiyatlari ijtimoiy - falsafiy jihatdan tahlil etilgan [5].

Lekin, jamiyatning ma'naviy sohasida simmetriya va asimmetriya birligining ijtimoiy-falsafiy tahlili tizimli tadqiq etilmagan.

Muhokama. Ma'lumki, har qanday jamiyatning yuksalishi, taraqqiyoti va barqarorligi nafaqat iqtisodiy-siyosiy salohiyat bilan, balki avvalo uning ma'naviy asoslari bilan belgilanadi. Garb faylasufi Alber Shveyster "Voqelikni shakllantiradigan kuchlar ichida birinchisi –ma'naviyat va axloq bo'lib, qolganlari ikkinchi darajali" [6, 269], degan edi. Haqiqatdan ham insonni inson qiladigan narsa – bu nafaqat uning aqliy salohiyati yoki ijtimoiy mavqei, balki eng avvalo ma'naviy-axloqiy dunyosi, ruhiy olamidir. Shu bois, har qanday ijtimoiy taraqqiyot – birinchi navbatda ma'naviy yangilanishdan boshlanishi kerak. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" [7, 21]. Demak, ma'naviyat xalqning ruhiy va g'oyaviy tayanchidir. Shuningdek, ma'naviyat - "inson

hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko‘nikmalar, odatlar tizimidir” [8, 158]. Bu jarayonni chuqur anglash va tahlil qilish uchun oddiy siyosiy yoki ijtimoiy tahlil yetarli emas. Bu jarayon falsafiy nuqtai nazardan, xususan “simmetriya va asimmetriya dialektikasi” tamoyili orqali tahlil qilinganda o‘zining ichki mohiyatini to‘liq ochib beradi.

Jamiyat hayotidagi ma’naviy simmetriya – bu inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, shaxsiy va umumiy manfaatlar uyg‘unligi, qadriyatlar birligi, axloqiy me’yorlarning keng qamrovliligi, ruhiy osoyishtalikdir. Shuningdek, simmetriya ijtimoiy-falsafiy jihatdan ma’naviy muvozanat, jamiyatdagi barqaror axloqiy normalar, milliy va madaniy totuvlik, diniy bag‘rikenglik va ma’naviy barqarorlik vositasida namoyon bo‘ladi. Masalan, ota-onaga hurmat, milliy urf-odatlarga ehtirom, ilmga rag‘bat, ezgulik va halollik kabi qadriyatlar jamiyatda ma’naviy simmetriyani shakllantiradi. Shuningdek, diniy ta’limotlarda ham simmetriya aksariyat hollarda halollik va poklik, sabr va shukr kabi axloqiy sifatlar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Bunday jamiyatda har bir inson o‘zini kerakli, himoyalangan va teng huquqli deb his etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga - hurmat, kichiklarga - shafqat, ezgu qadriyatlarga - sadoqat kabi fazilatlar azaldan xalqimiz va millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak” [9]. Demak, ma’naviyatni asrash va uni kelajak avlodga yetkazish masalasi bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biridir.

O‘zbekistonda bugun aynan mana shu ma’naviy simmetriyani shakllantirish uchun davlat darajasida konseptual siyosiy va ma’rifiy choralar ko‘rilmoqda. Masalan, “Tarbiya” fanlarini joriy qilinishi, “Ma’naviyat targ‘ibotchilari” tizimining kuchaytirilishi, madaniyat, san’at, adabiyot sohasiga davlat tomonidan e’tiborning ortishi – bular jamiyatda muvozanatli, barqaror, qadriyatlarga tayangan ongli ijtimoiy-ma’naviy muhit yaratishga qaratilgan ishlardir. Bu simmetriyaga intilish jarayonidir.

Q. Nazarovning fikricha, “insoniyat o‘z axloqiy taraqqiyoti davomida uchta idealga intilib kelgan. Bular erkinlik, tenglik va qardoshlikdir.... fikrda, axloqda va faoliyatda erkin bo‘lgan insongina o‘zligini anglab yetadi. O‘zligini anglagan inson barcha kishilarning o‘zaro tengligini his eta oladi. Bu tenglik prinsipining qaror topishidir. Odamlarning bir-birlarini o‘zaro teng deb bilishlari ularning yagona maqsad sari birlashib faol harakatga undaydi bu qardoshlik tamoyilining namoyon bo‘lishidir ” [10, 750]. Ushbu jihatlar inson ma’naviyatining umumiy tizimini tashkil etib, ularning markazida simmetriyaning ijtimoiy-ma’naviy shakli bo‘lgan tenglik tamoyili yotadi. Aynan tenglik tamoyili ishlagagina, erkinlik va qardoshlik ideallari o‘zining eng maqbul me’yorini saqlab qoladi.

Shu bilan birga jamiyatning ma'naviy hayotida o'zgarish, yo'qotish va inqirozlar ham yuzaga keladi va bunday asimmetrik jarayonlar vaqtinchalik bo'lsa-da, jamiyatning ma'naviy tamoyillarini zamon va makon nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish va yangilash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. "Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, "Chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda. Bularning barchasi biz uchun ogohlik qo'ng'irog'i bo'lib yangrashi zarur. Biz - g'ururi baland xalqmiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yuqotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi [11]. Demak, aynan ma'naviy asimmetriya holatlari jamiyatni o'zini qayta anglashga, ichki resurslarini safarbar qilishga va ma'naviy yangilanish zaruratiga olib keladi. Asimmetriya jamiyatning ma'naviy rivojlanish jarayonida qarama-qarshiliklar, nomutanosibliklar sababli yangidan-yangi qadriyatlar hamda madaniyat shakllarining paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, hozirgi "globallashuv sharoitida turli madaniyatlar bilan diniy qadriyatlarning o'zaro to'qnashuvi asimmetrik jarayonni aks ettirsada, aynan shu jarayon yangidan yangi rivojlanish va taraqqiyot imkoniyatlarini ham yaratadi" [12, 49].

Bugungi globallashuv jarayonida insoniyat turmush tarziga axborot texnologiyalari, internet tarmoqlari va ommaviy madaniyatning tezkor kirib kelishi nafaqat ijobiy imkoniyatlar, balki jiddiy ma'naviy asimmetriyalarni ham yuzaga chiqarmoqda. "Tinimsiz axborot oqimi vujudga keltirayotgan global muhitda milliy qadriyatlar, o'ziga xoslikni ifodalovchi oltin an'analar "zanglab" ketyapti. Buni televideniya, radio va matbuotda taqdim qilinayotgan turli mavzu va mazmundagi kinolar, qo'shiqlar, ularga ishlangan turli darajadagi kliplar zanglatayapti. Imon, e'tiqod va burchdan hosil bo'lgan Aql tarozusiga qo'yib o'lchanmagan, xayolga kelgan dastlabki "g'oya"ni andisha qilmay, bemalol "mahsulot" o'rnida atrofdagilarga ulashilayotgan jamiyatda inson ongi tobora o'tmaslashib ketyapti" [13, 191]. Ayniqsa, yoshlar qalbi va ongiga mafkuraviy xurujlar turli shakllarda singdirilayotgani ularning dunyoqarashi, xulq-atvori va ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan turli ma'naviy asimmetriyalar yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy faoliyatiga, ma'naviy barkamolligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda "milliy tarbiya, oilaviy qadriyatlar va davlat siyosati uyg'unligida yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ularni ongli, tanqidiy fikrlovchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zaruriy vazifadir" [14, 691].

Shu bilan birga dialektik nuqtai nazardan qaralganda, asimmetriya ma'naviy harakatga turtki beruvchi kuchdir. Shu jihatdan qaraganda, jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti hech qachon statik holatda emas – u har doim dinamik, ziddiyatli, qarama-qarshilikli harakatda, ya'ni simmetriya va

asimmetriya birligida yuzaga chiqadi. Chunki, ma'naviyat - shunchaki qadriyatlar majmui emas, balki u uzluksiz yangilanib, takomillashib boradigan ijtimoiy tizimdir.

O'zbekiston ijtimoiy-ma'naviy hayotida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar – xususan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” konsepsiyasi, ma'naviyat targ'ibotchilari faoliyati, ta'lim tizimida qadriyatlar asosidagi yondashuvning kuchaytirilishi – bularning barchasi asimmetrik bo'shliqlarni bartaraf etib, simmetrik muvozanatga erishishga qaratilgan ijtimoiy-harakatlardir. Bundan tashqari, “Yoshlar daftari”, “Xotin-qizlar daftari”, “Ijtimoiy himoya reestri” kabi tashabbuslar yordamida davlat aholining turli qatlamlaridagi ijtimoiy-ma'naviy muammolarni ochiq tan olmoqda va tizimli ravishda ularni hal qilishga urinmoqda. “Mahalla” tizimining isloh qilinishi esa fuqarolar va davlat o'rtasidagi ma'naviy-siyosiy aloqa kuchaytirilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5040-son Qarorida oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish [15] yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar asimmetriyani simmetriyaga aylantirish harakatidir. Bunday harakat esa o'z mohiyatida dialektik falsafiy hodisadir. Chunki har bir ijtimoiy jarayon o'zida harakat, qarama-qarshilik va ularning sintezini o'z ichiga oladi. Simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi bu dialektik birlik – jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy mexanizmdir.

Bugungi kunda O'zbekiston jamiyatida ma'naviyat masalasi shunchaki targ'ibot vositasi emas, balki davlat siyosatining g'oyaviy markaziga aylangan. Bu esa xalqning madaniy o'zligini tiklash, milliy g'ururini oshirish, tarixiy xotirasini mustahkamlash, axloqiy immunitetini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Endilikda ma'naviyat masalasiga nafaqat individning ichki olami, balki butun jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy birdamligi va milliy qadriyatlarining bosh

tayanchi sifatida qaralmoqda. Demka, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlar – bu shunchaki tizimli o'zgarishlar emas, balki ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqur mazmunga ega bo'lgan ma'naviy uyg'onish harakatidir. U simmetriya va asimmetriya o'rtasidagi dialektik birligiga asoslangan holda shakllanmoqda. Bunda davlat va jamiyat o'zini yangilash, qadriyatlarini qayta anglash, tarixiy ildizlariga tayangan holda zamonaviy ong shakllantirish yo'lidan bormoqda. Bu esa O'zbekiston jamiyatining barqaror va uzluksiz ma'naviy taraqqiyot sari harakat qilayotganining yaqqol isbotidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti bu – qarama-qarshiliklar birligi va kurashi asosida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy jarayondir. Simmetriya orqali u barqarorlik va uyg'unlikka intilsa, asimmetriya orqali o'zini yangilab, harakatga keladi. Falsafiy jihatdan aynan mana shu birlik – jamiyatni doimiy ma'naviy yuksalishga yetaklovchi asosiy dialektik mexanizmdir. Shu sababli, ma'naviy taraqqiyotning asosiy mohiyatini to'g'ri anglash uchun simmetriya va asimmetriya dialektikasi zaruriy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Список использованной литературы:

1. Ю.М.Пименов Культура и обучение: Аксиологический и пропедевтический аспекты. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата культурологии. Москва, 1999, 24 с.
2. О.В.Хотеева. Гармония как константа культуры. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата культурологии. Саратов 2006, 20 с.
3. В.Ю.Доброхотова. Культурфилософия гармонии П.А. Флоренского: математика, поэтические тексты, личность. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата культурологии. Кострома 2011, 24 с.
4. Қ.Н.Назаров. Қадриятлар тизими: Барқарорлик ва ўзгаришлар диалектикаси: Фалсафа фан. док. ... дисс. – Тошкент: 1996. – 238 б.
5. М.К.Номуратова. Жамият тараққиётидаги маънавий эҳтиёжларнинг фалсафий таҳлили. Фалсафа фан. ном. ... дисс. Автореферати. – Тошкент: 2011. – 29 б.
6. Швейцер А. Письма из Ламбарене /А. Швейцер. Л.: Наука, 1989. – 400 с.
7. Shavkat Mirziyoyev. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. – T.: O'zbekiston, 2017.
8. Raxmonova G.Sh. Ma'naviyat-jamiyat rivojlanishining muhim omili. "Экономика и социум". №10(101)-1 2022. – 460 б.
9. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi hamda

O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar) [Matn]: publitsistika. – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021.

10. Қ.Назаров. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. – Т.: «Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2022. -Б.750.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir [Matn]: – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021.

12. Ф.Х.Кессиди. Глобализация, функциональная асимметрия мозга и проблема интеграции культур. Философия и общество. Выпуск №1(34)/2004 , - 160 с.

13. Sh.S. Jumayeva. Ma’naviy yuksalish yo‘lidagi tahdidlar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. –Т., 2021, Volume 1, Issue 3. 186-194 b.

14. A.A.Isoqboyev Ma’naviy tahdidlar va ularni oldini olishning ayrim jihatlari// “Ma’naviy barkamol yoshlar yangi O‘zbekiston bunyodkori” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. –N., 2024, - 1001 b.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5040-son Qarori.